

Ingliz Va O'zbek Adabiyotida Ayol Obrazi

Maftuna Abdulimova

Farg'ona Davlat universiteti o'qituvchisi

Ibrohimova Nigora Farhodjon qizi

Farg'ona Davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi zamonda o'zbek ayoli deganda har bir inson ko'z o'ngida turli xil insonlar gavdalanadi. O'tgan asr o'zbek adabiyotiga ko'z tashlaydigan bo'lsak ayol obrazi faqatgina fidokor rafiq, ona va uy bekasi sifatida gavdalanirilgan, ingliz adabiyotida esa bularga qo'shimcha tarzda ayol ishbilarmon, ishchi xodim vazifalarini ham bajargan. Bu tasniflar esa ingliz yozuvchilari tomonidan ayol obrazini idealashtirishga va yanada jozibali qilishga yordam bergan. Maqolada o'zbek hamda ingliz ayol obrazlarini jamiyatda tan olinishi, oilada tutgan o'rnigani tahlil qilgan holda badiiy adabiyotdagi muhim vazifasini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, ayol obrazi, timsollar, roman, badiiy adabiyot.

Hozirgi zamonaviy asrda yurtimiz har bir jabhada oldinlab bormoqda. Misol uchun, sport, madaniyat, adabiyot, musiqa hamda boshqa barcha sohalar dunyo yuzini ko'rmoqda. Bungi kundagi adabiyotga to'xladigan bo'lsak, badiiy asarlarimiz ko'p tillarga tarjima qilinmoqda. Hamda bu badiiy adabiyotlarda ayol obrazi ta'svirlanga asarlarimiz ko'p kitobxonlarni qalbidan chuqur iz qoldirmoqda. Bunga sabab qilib XX asr badiiy adabiyotini keltirsak bo'ladi. Chunki o'tgan asrlarni romanlari, mumtoz adabiyoti, adabiyot nazariyasi, poetika, nazm kabi sohalar va asarlar ayol obrazini yanada jozibali qilib ochib berishga yordam bergan. Nafaqat o'tgan asrda balki, mumtoz adabiyot asridan beri ayol personajlari eng asosiy masala bo'lib kelgan. Shu sababli ham necha zamonlardan beri ayol siyosiga, xarakteriga bag'ishlangan asarlar yaratilmoqda.

O'zbek nasrida ayol obrazi mumtoz hamda zamonaviy badiiy adabiyotda ham ko'p uchraydi. XX asrda u borada juda ham ko'p asarlar mohirlik bilan yaratilgan. Bu asarlar hozirgi kunga kelib eng durdona asarlar sirasiga kiradi. Ularga misol qiladigan bo'lsak, Zebi (Kecha va kunduz), Kumushbibi, Zaynab (O'tkan kunlar), Jannat xola (Ufq), Unsum (Dahshat), Umri xola (Urushning so'ngi qurboni) obrazlari o'zbek badiiy adabiyotida ayol timsolni yana mohirlik bilan ochib bergan asarlar qatoriga kiradi. Bu asarlarni o'qir ekansiz ko'zingizga tasodifan yosh keladi, chunki bu asrlarda bizni an'analarmiz, qadriyatlarimiz, o'tgan asrda ona mehri, rafiq o'rni qanday bo'lgani his qila olamiz. O'zbek ayoliga tasnif berar ekanmiz bir qo'lida bola yan bir qo'lida beshik tebratgan inson sifatida ham tasvirlasak to'g'ri bo'ladi.

Har bir xalqning o'ziga xos tarixiga va ma'daniyati bor va ularni bilib olishimiz uchun biz o'sha davlatning badiiy adabiyotini o'qishimiz zarur shundagina biz o'sha mamlakat yoki xalq haqida juda ko'p ma'lumotga ega bo'lamiz. Bundan ko'rinib turibdigi har qanday millat va ellatni ma'naviyatini bilish, tarixini o'rganish bu haqida tasavvurni shakillantirish uchun jahon adabiyotini o'rni nihoyatda katta tasir ko'rsatadi.

Ingliz nasriga keladigan bo'lsak, hozirgi kungacha ingliz adabiyotida juda ham ko'p ayol obrazlari yaratilgan. Xususan Jayn Ostining "G'urur va andisha", "Anna", Margaret Mitchellning "Shamollarda qolgan hislarim" ingliz kitobxonlarini eng sevib o'qiydigan kitoblari sirasiga kiradi.

Nafaqat ingliz, balki butun dunyoda eng durdona asarlar sirasiga kiradi hamda juda ko'p tillarga tarjima qilingan kitoblar qatoridan joy olgan.

XX asrda har bir yozuvchi va shoirlar o'z millatini an'alariga bog'langan holda o'z ayol obrazlarini yaratgan. Bu yaratilgan ayol obrazlari esa hozirgi kunda kitob sevarlarni go'zaligi, jozibasi, sabri, donishmatligi va ijodkorligi bilan hayratga va hayojonga solmoqda. Bu esa rostdan ham taqsiinga loyiq.

Ayolning aqli, tafakkuri, sabr-bardoshi hamda onalik mehri mana necha zamonlarki mumtoz hamda zamonaviy adabiyotda asosiy mavzu hisoblanib kelinmoqda. Aslini olib qaraganda, badiiy adabiyotda tasvirlangan ayol sabr bardoshi hozirgi zamon ayollariga malaka maktabini vazifasini bajaradi, desak ham adashmagan bo'lamiz.

O'zbek badiiy adabiyotiga keladigan bo'lsak, XX asr urush davri hisoblanadi, shu boisdan, urush davridagi ayol sabr bardoshi, onalik mehri, fidokor rafiqaligi ko'p asarlarda yaqqol yoritilib berilgan. Har bir yozuvchi o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda o'z ayol obrazlarini yaratgan. Misol uchun, Sharq yozuvchilari aynan o'zbek adabiyotida ayol-rafiqa, ayol-ona sifatida gavdalandirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, o'tgan asrda ayol faqatgina oila, uy ishlari bilan cheklanib qolgan. Lekin hozirgi o'zbek adabiyotida ayol jamiyatning bir bo'lagiga aylangan.

O'zbek adabiyotida ayol obrazini mahorat bilan yaratgan yozuvchilar salmoqli. O'tkir Hoshimov, Erkin A'zam, Isojon Sulton, Abdulla Qodiriy kabi yozuvchi va shoirlar bor. Said Ahmad qalamiga mansub "Qochoq" hikoyasiga Jannat xola obraziga ko'z tashlaydigan bo'lsak, aynan o'sha davrlar urushi yillariga to'g'ri kelgan. Bu asarda Jannat xola shunday tashvirlangan u yoshi o'tib qolgan ayol o'zining armiyadan qochib, to'qayzorga berkingan o'g'liga umrining oxirigacha unga oziq-ovqat tashish bilan o'tgan. Bu asarda ayolning sabri hamda mehribon ona tasviri yaqqol ko'rinib turadi. Hattoki, joni og'rib tanasida turli og'riqlar bo'lsa ham, har kuni unga ovqat tashiydi. Bu asar ayol obrazi haqida yaratilgan so'nggi asar emas, albatta. Bunday asarlar bizning madaniyatimizni, an'alarimizni juda chiroyli tarzda ochib bergan.

Ingliz yozuvchilariga keladigan bo'lsak, ular ham o'z madaniyatiga, an'alariga xos tarzda ayol obrazlarini yaratganlar. XX asrda ingliz yozuvchilari orasida mukkamal ayol obrazini yaratgan yozuvchilar Jeyn Ostin, Uilyam Shekspir, Margaret Mitchell shular jumlasidan. Ingliz adabiyoti deganda har bir inson ko'z o'ngiga Uilyam Shekspir keladi, shubhasiz. Shekspir o'z davrining mashhur yozuvchisi hisoblanadi. U o'z davrini mukkamal ayol obrazi Yeven Ofeliya obrazi orqali gavdalandirgan. Undan tashqari, Jeyn Ostin qalamiga mansub bo'lgan "G'urur va andisha" asarida ayol obrazini Elizabet Bennet jozibali va mukkamal yaratishga harakat qilgan. Elizabet uch opa-singil orasida eng aqli va chiroyli ayol sifatida gavdalandirilgan. Lekin Valdron bu firkga mutloqa qarshi fikr yuritgan, ya'ni uning, "Elizabet Penberning bekasi bo'lish nimani anglatishini bilganidan keyin, u turmush o'ziga ham, oilasiga ham foyda keltirishini bilgan va shu sababdan Elizabetni boshqa insonlar kabi pul haqida qayg'uradigan inson sifatida ko'rgan". Asardagi ba'zi bir ayol qahramonlar biroz ahmoqona tasvirlangan. Uch opa-singilning onasi Bennet xonim esa biroz zerikarli, tor fikrlaydigan ayol qilib tasvirlangan hamda uning yagona fikri qizlarini boy xonadonlarga turmushga uzatish bo'lgan. Bu obrazga ham Valdron o'z fikri bildiradi: "Bennet xonim juda ham tor fikrlaydigan, boshqalarning tuyg'ulari haqida o'ylamay gapiradigan inson" sifatida tanqid qilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqoidagi ma'lumotlarga tayangan holda shuni anglashimiz mumkinki, har bir millat va elatlarning o'z qahramon ayol, ishbilarmon, jozibali, sabr borasida o'rnak olishimiz darkor bo'ladigan, mehribon ona, fidokor rafiq, ishchi xodim sifatida tasvirlangan bir qancha ayol obrazlari mavjuddir. Bu holat insonni quvontiradi, chunki yaratilgan har bir asar necha asr o'tmasin o'z xususiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Chunki bu asarlar o'sha millatning qadriyatlariga haqida so'zlaydi. Shuningdek, har bir ellatni jahon tan olgan durdona asarlari mavjud. Bu xoh o'zbek bo'lsin, xoh ingliz, har davlat o'zi uchun mukkamal yaratilgan ayol obrazlariga egadir. Masalan, biz uchun eng mukkamal hamda jahon madaniyatini durdonalari hisoblangan "Alpomish" dostonidagi Oybarchin obrazi vafo, fidokorlik, jasoratning yaqqol belgisi hisoblanadi. Bu asarlar hech qachon o'lmaydigan asarlar qatoriga kiradi. Shubhasiz, ingliz hamda o'zbek yozuvchilari ayol obrazida eng

yaxshi hislatlarini, xulqini ko'rsatib berishga harakat qilshgan va bu izlanishlar besamar ketmagan degan fikrdaman. Chunki ular biz uchun o'zlariga qadrli bo'lgan buyuk xazinalarini meros qilib tashlab ketishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduolimova, M. (2023, May). Literary and Comparative Analysis of “Godfather” and “Shaytanat”. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 165-168).
2. Abduolimova, M. Metaphors in Literature and Daily Speech
3. Akhadalievich, A. K. (2023). Modern Approaches to Linguistics: Exploring New Frontiers in Language Research. *Journal of Education, Ethics and Value*, 2(6), 9-11
4. Komilova, G., & Abduolimova, M. (2023). Development of Competences Referred to in International Assessment Programs And Standards in Foreign Language Teaching, 3(5), 127-129
5. Nilufar Xajikurbanova: "Hozirgi davrda hikoyalarda ayollar obrazi talqinida" *Science and Innovation* 2022 ISSN:2181-3337
6. Umarova F.B Ingliz va O'zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasnifi. <https://journal.fledu/wp-content/uploads/sites/3/2022/08/umarova-f.-b.-adabiyoti.pdf>.
7. Waldron.M; Jane Austen and the fiction of her time Cambridge':Cambridge University Press 1999-320p.
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/hozirgi-davr-hikoyalaridan-ayollar-obrazi-talqini>
9. www.Wikipedia.com.